



Haydarova Shohsanam Bahrom qizi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
Madaniyat va san'at sohasi menejmenti mutaxassisligi  
2-kurs magistranti

## TEATR BOSHQARUVINING AHAMIYATI VA TETARLAR FAOLIYATIDAGI MUAMMOLAR TADQIQOTI

**Annotatsiya:** Maqolada davlat teatri yoki konsert-tomosha muassasasi faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladigan direktorning faoliyati va vazifalari haqida so'z yuritilgan. Bugungi kunda teatrlarning eng dolzarb muammolaridan biri – bu teatr boshqaruvi. Teatrlarni boshqarmoq biroz qiyin jarayon. Sababi bunda insonlarning ijodi va iqtidorlarini boshqarish ham nazarda tutiladi. Teatrni to'g'ri va samarali boshqarish soha rivojida muhim omillardan ekanligiga alohida urg'u beriladi.

**Kalit so'zlar:** teatr direktori, boshqaruv, davlat teatri, mutaxassislar, xodimlar, repertuar, kadrlar, boshqarmalar, madaniy xizmat.

**Аннотация:** В статье говорится о деятельности и обязанностях режиссера, который является общим руководителем государственного театра или концертно-зрелищного учреждения. Одной из самых актуальных проблем театров сегодня является театральный менеджмент. Управление театрами — довольно сложный процесс. Причина в том, что это также включает в себя управление творчеством и талантами людей. Особое внимание уделяется тому, что правильное и эффективное управление театром является одним из важных факторов развития отрасли.

**Ключевые слова:** директор театра, руководство, государственный театр, специалисты, репертуар, кадры, отделы, служба культуры.

**Abstract:** The article talks about the activities and duties of the director, who is the overall leader of the state theater or concert-spectacle institution. One of the most urgent problems of theaters today is theater management. Managing theaters is a somewhat difficult process. The reason is that it also involves managing people's creativity and talents. Special emphasis is placed on the fact that proper and effective management of the theater is one of the important factors in the development of the industry.

**Key words:** theater director, management, state theatre, specialists, repertoire, personnel, departments, cultural service.

Davlat teatrlari va konsert-tomosha muassasasiga O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi tomonidan tegishliligi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan kelishgan holda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan direktor rahbarlik qiladi.  
Direktor:



davlat teatri yoki konsert-tomosha muassasasi faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi hamda zimmasiga yuklatilgan vazifa va funksiyalarning bajarilishiga shaxsan javob beradi;

belgilangan tartibda davlat teatri va konsert-tomosha muassasasi mol-mulki va mablag'larini tasarruf qiladi;

yuridik va jismoniy shaxslar bilan tegishli xizmatlar ko'rsatish uchun shartnomalar (kontraktlar) tuzadi;

barcha muassasalar, tashkilotlar va jismoniy shaxslar bilan munosabatlarda davlat teatri yoki konsert-tomosha muassasasi manfaatlarini himoya qiladi;

xodimlarning mansab yo'riqnomalarini va ichki mehnat tartibi qoidalarini belgilangan tartibda tasdiqlaydi, xodimlarni mehnat shartnomasi asosida ishga qabul qiladi va belgilangan tartibda ishdan bo'shatadi;

davlat teatri yoki konsert-tomosha muassasasining faoliyati masalalariga oid buyruqlarni, yo'riqnomalarni va boshqa hujjatlarni chiqaradi;

ishda alohida namuna ko'rsatgan xodimlarni normativ-huquqiy hujjatlarga asosan va O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi huzuridagi Badiiy kengashi tavsiyasiga ko'ra rag'batlantiradi;

xodimlarga nisbatan intizomiy jazo choralarini ko'radi;

o'z vakolatlari doirasida boshqa masalalarni ko'rib chiqadi va hal qiladi.

Direktor o'z huquqlarini amalga oshirishda va vazifalarini bajarishda davlat teatrlari va konsert-tomosha muassasasi manfaatlarini ko'zlab harakat qilishi shart. Direktor davlat teatri yoki konsert-tomosha muassasasi faoliyatining natijalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligiga hisobot beradi.

Davlat teatri va konsert-tomosha muassasasi direktorining o'rinbosarlari O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi bilan kelishilgan holda, direktor tomonidan lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi. Davlat teatrlari va konsert-tomosha muassasalariga badiiy rahbar va bosh rejissor O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.



Bugungi kunda teatrning eng dolzarb masalalardan biri – bu teatrlarda yuksak badiiy saviyadagi repertuari shakllantirish ekanligi malum. Bunday ijodiy ishda teatr direktori bilan bir qatorda bosh rejissyor, rejissyor hamda adabiy emakdoshning birdek mas’ulligini alohida ta’kidlash kerak. Har bir teatr o‘zining eng sara, badiiy jihatdan yetuk, klassik dramaturgiya namunalari asosida yaratilgan spektakllari bilan yangi mavsumga qadam qo‘yishga harakat qiladi. Teatr rahbar xodimlarning oldida turgan bugungi kundagi asosiy vazifalar bu – teatrlarga malakali, salohiyatli kadrlarni jalb etish, yosh iste’dodlarni izlab topish, ishonch bildirish va ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ayniqsa yosh rejissyorlarga alohida e’tibor qaratish va shart-sharoitlar yaratib berish bu soha rivojida muhim omillardan ekanligi alohida e’tirof etish kerak. Har bir teatrdagi ijodiy va ma’naviy muhitning sof va barqaror bo‘lishi uchun ijodiy va ma’muriy boshqaruv xodimlarining ko‘rsatkichlari monitoringini olib borish va shu asosda moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish choralarini ko‘rish, shuningdek, teatrlar faoliyatini va repertuarlarini yoritishda tanqid va tahlildan ko‘proq foydalanish kerakligini tavsiya qilindi. Teatrlarning ish faoliyatini qayta isloh qilish yo‘lida 2018-yili 29 iyul kuni Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyat teatrlari direktorlari, bosh rejissyorlari hamda ijodkorlari ishtirokida 2017-2018 yil teatr mavsumi yakunlariga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazgan edi. Har bir teatrdagi ijodiy va ma’naviy muhitning sof va barqaror bo‘lishi uchun ijodiy va ma’muriy boshqaruv xodimlarining ko‘rsatkichlari monitoringini olib borish va shu asosda moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish choralarini ko‘rish, shuningdek, teatrlar faoliyatini va repertuarlarini yoritishda tanqid va tahlildan ko‘proq foydalanish kerakligini tavsiya qilindi.

Mazkur holatlar yuzasidan vazirlikning tegishli boshqarmalariga quyidagi:

- Respublikaning yetuk teatrshunos va rejissyorlardan iborat mutaxassislari ro‘yxatini shakllantirilsin va ularni ma’lum teatrga rahbar (kurator) sifatida biriktirilsin;
- har bir teatrning ijodiy va texnik xodimlarini chet ellarda malakasini oshirishi bo‘yicha hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha tegishli amaliy choralar ko‘rilsin;
- keyingi mavsum rejasiga kiritilgan sahna asarlarini davlat buyurtmasi asosida sahnalashtirilishi bo‘yicha takliflar ishlab chiqilsin va vazirlikka taqdim etilsin;





Qoraqalpog‘iston respublikasi, Toshkent shahri va viloyat teatrlarining grim mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoji o‘rganilsin va ularning ehtiyoji qondirilishi bo‘yicha amaliy choralar ko‘rilishi to‘g‘risidagi ko‘rsatmalar berildi. Shuningdek, majlis so‘nggida O‘zbekiston respublikasi Madaniyat vazirligining tegishli boshqarmalari, Qoraqalpog‘iston respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarning Madaniyat boshqarmalari, teatrlar rahbarlari oldidagi quyidagi ustuvor vazifalar belgilab berildi:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari, Madaniyat vazirligi tomonidan berilgan topshiriqlar ijrosining o‘z vaqtida va samarali amalga oshirilishini ta‘minlash;
- Qoraqalpog‘iston respublikasi va viloyatlarda har bir teatr reklamasi uchun reklama shitlari, banner, panno va monitorlarning o‘rnatilishi ishlarini jadallashtirish;
- soha mutaxassislaridan iborat komissiya tashkil etilib, teatrlarning repertuari hamda ijodiy va ma‘naviy muhitini o‘rganish, ijodiy ko‘mak berish maqsadida ularni xizmat safariga yuborish; mavjud muammolarning sabablarini o‘rganib, ularni atroflicha va keng muhokama qilish;
- vazirlikning navbatdagi Hay‘at majlisida ushbu masalalar natijalarini hamda teatr muassasalarining reyting ko‘rsatkichlarini muhokama qilish, erishilgan natijalarni yanada yuksaltirish, reyting ko‘rsatgichi past bo‘lgan teatrlar yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish;
- teatrlarda yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar belgilash hamda kelajakda ijodiy jihatdan yuqori va ijobiy ko‘rsatkichlarni egallash uchun zarur choralarni ko‘rish.
- barcha teatrlarning iqtidorli yosh kadrlarini qo‘llab-quvvatlash, ishonch bildirish, ustoz-shogird an‘analarini yo‘lga qo‘yish;
- kelajakda sahnalashtiriladigan barcha spektakllarning 3 va 5 yillik istiqbolli rejasi tuzish va ularning aniq reja asosida ishlashini yo‘lga qo‘yish;



– Madaniyat va turizm vazirligi va teatrlar Badiiy Kengash a’zolari hamda teatrlar adabiy emakdoshlarining sahnalashtiriladigan spektakllarning badiiy saviyasiga mas’ulligi va javobgarligini oshirish.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2019-yil 18-apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “[Davlat teatrlari va konsert-tomosha muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida](https://lex.uz/docs/-4292266?ONDATE=14.04.2021%2000)”gi 329-son qarori. <https://lex.uz/docs/-4292266?ONDATE=14.04.2021%2000>
2. <https://gov.uz/oz/news/view/18215>
3. Ahmadjonova M. Teatrshunoslik. – Toshkent: “InnovatsiyaZiyo”, 2021, 384 b.

